Zamonaviy globallashuv, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va psixologik mexanizmlari tubdan o'zgarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, bugun insoniyat yangi sivilizatsiya

bosqichiga – sun'iy intellekt davriga dadil qadam qo'ymoqda. Qaysi soha bo'lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari.^{1 [20]}. Davlat rahbarining ushbu fikri zamonaviy ta'lim oldida turgan muhim vazifani, ya'ni yosh avlodga faqat bilim berish emas, balki ularning ilg'or kompetensiyalarni egallashi, mustaqil fikrlashi, raqamli muhitda ongli harakat qilishi va o'z intellektual salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiyada talaba va o'quvchilarning o'zlashtirishi masalasi dastlab XX asr boshlaridagi klassik psixometrik yondashuv doirasida izohlangan bo'lib, o'quv muvaffaqiyati asosan intellekt darajasi (IQ) bilan bog'lab o'rganilgan. Bu yondashuvga ko'ra, o'quv jarayonidagi farqlar talabalarning tug'ma aqliy qobiliyatlari bilan belgilanadi, o'zlashtirishning poydevori esa shaxsning umumiy aqliy salohiyati sifatida talqin etilgan^[8].

A. Bine, Ch. Spirmen, L. Terman kabi psixologlar tomonidan yaratilgan IQ testlari o'sha davr ta'lim tizimida markaziy o'rinni egalladi. A. Binening dastlabki "aqliy yosh" konsepsiyasidan boshlab, L. Terman tomonidan ishlab chiqilgan Stanford–Bine shkalasi va Ch. Spirmenning "g-faktor" nazariyasi o'quvchining o'zlashtirish darajasini bir o'lchovli ko'rsatkich sifatida baholashni kuchaytirdi. Natijada, kim yuqori intellektga ega bo'lsa, u o'qishda ham yuqori natijaga erishadi, kimning IQ ko'rsatkichi past bo'lsa, past o'zlashtirish tabiiy oqibat deb qaralgan^[31].

Bu yondashuv ta'lim tizimida "seleksiya funksiyasi"ni kuchaytirdi: o'quvchilar qobiliyatiga ko'ra saralandi, ayrim guruhlarda esa past o'zlashtirish "tug'ma qobiliyatsizlik" bilan bog'landi^[32]. Bunday reduksionistik qarash ta'lim jarayonining murakkab psixologik tabiatini yetarli darajada aks ettirmas edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarning o'zlashtirish psixologiyasiga oid ilmiy qarashlarning evolyutsiyasini tahlil qilishda nazariy va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini psixometrik, bixevioristik, kognitiv, motivatsion-affektiv, metakognitiv hamda konstruktivistik yondashuvlar tashkil etdi. Mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar hamda zamonaviy ta'lim psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar o'rganildi va tizimlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, sintez va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti, learning analytics va sun'iy intellekt texnologiyalarining talabalarning o'zlashtirish jarayoniga ta'siri zamonaviy ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Olingan nazariy ma'lumotlar asosida o'zlashtirish psixologiyasining rivojlanish bosqichlari hamda uning zamonaviy biopsixososial–raqamli modeli konseptual jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur davrning yana bir muhim jihati - o'quv faoliyatini aniqlovchi omillar doirasining juda torligi bo'ldi. Motivatsiya, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini boshqarish, oilaviy va ijtimoiy muhit, stress, e'tiqodlar, o'quv strategiyalari kabi hozirgi zamon psixologiyasida asosiy determinant hisoblangan omillar o'sha davr ilmiy modelida deyarli hisobga olinmagan. Ta'lim jarayoni faqat bilim salohiyati bilan izohlab kelindi va shuning uchun o'zlashtirishning ko'p omilli tabiati yetarlicha yoritilmadi^[30].

Aynan IQ markazli yondashuv psixologiyaning keyingi bosqichlarida tanqid qilinib, o'quv muvaffaqiyatining murakkab psixologik mexanizmlari haqida kengroq tasavvur shakllanishiga turtki bo'ldi.

Keyingi bosqichda psixologiyada bixeviorizm oqimi shakllandi va ta'lim jarayonini ilmiy asosda o'rganishda yetakchi yondashuvlardan biriga aylandi. Bu yondashuv vakillari o'quv faoliyatini inson ongidagi ichki jarayonlar bilan emas, balki kuzatiladigan xulq orqali tushuntirishni taklif qildi^[35]. Ularning nazariyasiga ko'ra, o'quv jarayoni asosan "stimulus–reaksiya" (S–R) mexanizmi orqali amalga oshadi: tashqi muhitda taqdim qilingan stimulga o'quvchi mos reaksiya bildiradi va bu reaksiya takror talab etiladigan xulqqa aylanadi.

Bixeviorizmga ko'ra, o'zlashtirishning mohiyati murakkab bilish jarayonlarida emas, balki to'g'ri xulqni shakllantirish, uni takrorlash va mustahkamlashda deb qaralgan. Shuning uchun o'qish jarayonida takrorlash, mashq qilish, xatolarni kamaytirish, to'g'ri javoblarni ko'paytirish asosiy metodlar sifatida qo'llanilgan. E. Torn-dayk tomonidan ishlab chiqilgan ta'sir qonuniga ko'ra, agar xulq natijasi yoqimli bo'lsa, u mustahkamlanadi, agar yoqimsiz bo'lsa, aksincha, takrorlamaslikka harakat qiladi^[33].

B.F. Skinner esa bu yondashuvni operant shartlantirish nazariyasi bilan kengaytirib, o'rganishni rag'bat va jazoga asoslangan mexanizm sifatida izohladi^[29].

1 <https://president.uz/oz/lists/view/8582>



Natijada baho, mukofot, reyting, ball, rag'batlantiruvchi vosita va intizomiy choralar ta'lim tizimida asosiy boshqaruv mexanizmiga aylandi. Psixologik tadqiqotlar ko'pincha quyidagi savollarga qaratildi:

1. Qaysi tizim (rag'batlantirish yoki jazolash) ko'proq samarali?
2. O'zlashtirish ko'rsatkichini oshirish uchun qanday takrorlash chastotasi optimal sanaladi?
3. Mukofotning qaysi turi (moddiy, ijtimoiy yoki verbal) talabning xulqiga ko'proq ta'sir qiladi?

Bu tadqiqotlar ta'lim jarayoniga nisbatan ancha mexanik tipdagi yondashuvni shakllantirdi. Talabning ichki motivatsiyasi, ma'noli o'rganish, shaxsiy qiziqishlari, fikrlash jarayonlari, emotsional holatlari bu modelda e'tibordan chetda qoldi. Bixeviorizmning eng katta cheklovi ham shunda edi: u faqat kuzatish mumkin bo'lgan xulq-atvorni o'lchab, o'quv jarayonining ichki psixologik mexanizmlarini tushuntirib bera olmasdi ^[10], ^[26].

Shunga qaramay, bixevioristik yondashuv ta'lim tizimida muhim iz qoldirdi. Aynan shu davrda o'quv faoliyatini tashqi rag'batlar bilan boshqarish an'anasi shakllandi. Baho, ball, reyting va mukofot tizimlari hozirgi ta'limning ham markaziy elementlari sanaladi. Bixevioristik yondashuvning markaziy g'oyasi shundaki, o'quvchi motivatsiyasi ko'p hollarda tashqi omillarga tayanadi.

1950-60-yillardan boshlab psixologiya fanida sodir bo'lgan "kognitiv inqilob" o'quv jarayonini tushinishda yangi paradigma yaratdi. J. Piaje, J. Bruner, D. Osobel, U. Naysler kabi ilmiy maktab vakillari bixevioristik yondashuvning chegaralarini tanqid qilar ekan, inson ongidagi ichki aqliy jarayonlar – idrok, diqqat, xotira, fikrlash, tasniflash, qaror qabul qilish - o'quv faoliyatining asosiy mexanizmlari ekanini ta'kidladilar. Bu yondashuv talabalarning o'zlashtirishi faqat xulqiy reaksiyalarga bog'liq emas, balki ongning axborotni qanday qayta ishlashi bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari surdi.

Kognitiv psixologiyaning ushbu davrdagi markaziy g'oyalaridan biri - o'qish jarayoni axborotni qabul qilish, kodlash, saqlash va qayta tiklashga asoslangan murakkab kognitiv tizim sifatida namoyon bo'lishidir. Talaba axborotni qanchalik samarali qayta ishlay olsa, uning o'zlashtirish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ilmiy izlanishlar diqqatning barqarorligi, ishchi xotira sig'imi, kognitiv strategiyalar, semantik tarmoqlar va informatsiyani qayta tashkil etish jarayonlarini chuqur o'rganishga yo'naltirildi ^[2].

Bu davrning eng ta'sirli nazariyalaridan biri D. Osobelning "ma'noli o'rganish" konsepsiyasi bo'lib, unga ko'ra o'quv materialining o'zlashtirilishi talabning mavjud bilim tizimi, ya'ni kognitiv strukturasi bilan qanchalik bog'lanishi orqali belgilanadi. Yangi axborot talaba ongidagi avvalgi tushunchalar bilan mantiqan integratsiyalansa, o'rganish chuqur, barqaror va ma'noli bo'ladi. Bu g'oya natijasida ta'lim jarayonida kontseptual xaritalar, grafik organayzerlar, oldindan tayyorlangan tizimlar kabi metodlar paydo bo'ldi ^[3].

Kognitiv inqilob, shuningdek, talabning o'quv jarayonidagi rolini tubdan o'zgartirdi. Endi u passiv qabul qiluvchi emas, balki faol axborot qayta ishlovchi subyekt sifatida talqin qilindi. Talabalar tinglaydi, solishtiradi, tahlil qiladi, tuzadi, kategoriyalarga ajratadi, xatolarini aniqlaydi va fikr strategiyalarini shakllantiradi. Ayniqsa, J. Bruner ta'lim jarayonida o'quvchining faol kashf etish, tushunchalarni mustaqil qurish va bilimlarni tizimlashtirishdagi rolini alohida ta'kidlagan bo'lsa ^[10],

U. Naysler kognitiv psixologiyani insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va interpretatsiya qilish jarayonlarini o'rganadigan yo'nalish sifatida asoslab berdi ^[21]. Bu jarayonlar o'zlashtirishning sifatini oshiruvchi asosiy psixologik omillarga aylandi.

Ushbu davrda ilmiy tadqiqotlar quyidagi savollarga yo'naltirilgan:

1. Talaba axborotni qanday tahlil qiladi?
2. Qanday xotira strategiyalari ma'lumotlarni saqlashni kuchaytiradi?
3. Diqqatning chalg'ishi o'zlashtirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. O'zlashtirishda yuzaga keladigan xatolar qanday kognitiv jarayonlar bilan izohlanadi?

Bu savollar kognitiv psixologiyaning asosiy tadqiqot yo'nalishlari - idrok, diqqat, xotira, ishchi xotira, semantik kodlash, muammoli fikrlash va o'quv strategiyalari bilan bevosita bog'liq edi ^[4]. Talabning axborotni tahlil qilishdagi faolligi, mavjud bilimlar bilan yangi bilimlarni bog'lay olishi va xotira strategiyalaridan foydalana olishi o'zlashtirish sifatini oshiruvchi muhim psixologik omillar sifatida qaraldi ^[19].

Motivatsiya hali markaziy mavzuga aylanmagan bo'lsa-da, faol o'qitish, ma'noli o'zlashtirish, konseptual fikrlash, muammoli vaziyatlar kabi didaktik tamoyillar aynan shu davrdan shakllana boshladi. Kognitiv yondashuv ta'lim psixologiyasiga murakkablik, izchillik va strukturaviy tahlil olib kirdi va shundan boshlab o'quv jarayonini tushuntirishda faqat rag'bat-jazo modeli yetarli emasligi ochiqlandi. Shu tariqa, 1950–60-yillardagi kognitiv inqilob talabalarning o'zlashtirish jarayonini psixologik nuqtayi nazardan chuqur anglash imkonini yaratdi. Bu davr keyinchalik motivatsion, metakognitiv va konstruktivistik nazariyalar rivoji uchun poydevor bo'lib xizmat qildi.

1970-90-yillardan boshlab o'quv faoliyatini tushuntirishda psixologiya fanida keskin paradigmal o'zgarish yuz berdi. Bixeviorizmning tashqi rag'bat va xulqqa asoslangan modeli o'zining cheklovlarini ko'rsatgan sari olimlar talabani o'zlashtirish jarayonini aniqlovchi ichki psixologik mexanizmlar - motivatsiya, o'z-o'ziga ishonch, maqsadlar tizimi, emotsional barqarorlik, shaxsiy e'tiqodlar va o'z-o'zini boshqarish kabi omillarga chuqur e'tibor qaratishni boshladilar^[12]. Natijada o'qish jarayoni insonning shaxsiy, kognitiv va affektiv xususiyatlari bilan bog'liq murakkab psixologik tizim sifatida talqin qilina boshladi^[25].

Mazkur davrda psixologiyada bir nechta yirik nazariy maktablar shakllandi. Ulardan eng ta'sirli yondashuvlardan biri A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan sotsiokognitiv nazariya bo'lib, unga ko'ra talabani o'qishga bo'lgan munosabati va natijasi uning o'z-o'ziga ishonch darajasi (self-efficacy) bilan bevosita bog'liq [5]. Bandura talabani "men buni qila olaman" degan ichki ishonchi mavjud bo'lmasa, hatto yuqori IQ ko'rsatkichlari ham o'quv muvaffaqiyatiga olib kelmasligi mumkinligini ilmiy asoslab berdi. Bu tamoyil o'zlashtirishni endi nafaqat kognitiv imkoniyatlar, balki shaxsning o'ziga bo'lgan subyektiv bahosi belgilashini ko'rsatdi^[26].

Bu davrning yana bir muhim yondashuvi - B. Vaynerning attributsiya nazariyasi edi. B. Vaynerning talqiniga ko'ra, talabani muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikni qanday "izohlashi" (masalan, "men yetarlicha tayyorlanmadim", "omad yetmadi", "o'qituvchi adolatsiz bo'ldi") uning kelajakdagi o'quv motivatsiyasi va o'zlashtirishiga kuchli ta'sir qiladi^[36]. Agar talaba muvaffaqiyatsizlik sababini o'z nazoratida bo'lgan ichki omillar bilan izohlasa, u o'qishga yanada faolroq kirishadi; aksincha, tashqi omillar bilan bog'lasa, motivatsiya pasayishi mumkin^[25]. Shu tariqa, talabani o'qishga munosabati, o'z imkoniyatlarini qanday talqin qilishi o'zlashtirishning muhim psixologik prediktoriga aylandi.

Motivatsiya psixologiyasida J. Atkinson va J. Ekls tomonidan ishlab chiqilgan "faoliyat kutilmasi va shaxsiy ahamiyati modeli" ham o'quv jarayonining yangi talqinini berdi. Mazkur modelga ko'ra, talabani o'qishga kirishish darajasi ikki asosiy omil bilan belgilanadi:

- faoliyat kutilmasi - talaba o'zining bu faoliyatni uddalay olishi haqidagi ishonchi;
- shaxsiy ahamiyati - faoliyatning talaba nazaridagi ahamiyati va shaxsiy qiymati^[11].

Agar talaba biror topshiriqni bajarishga qodir ekaniga ishonsa va bu faoliyat uning uchun ma'noli bo'lsa, u o'qishga ko'proq kuch sarflaydi, natijada o'zlashtirish yuqori bo'ladi^[12]. Bu nazariya o'quv jarayonining affektiv va shaxsiy komponentlarini yanada chuqurroq anglashga imkon berdi.

Ushbu davrda ilmiy tadqiqotlarda o'zlashtirishning psixologik mohiyatini chuqur anglash uchun quyidagi savollar markazga ko'tarildi:

1. Talaba o'qishga qanday munosabatda?
2. Talaba o'zini qanchalik "qobiliyatliman" deb biladi?
3. Talaba uchun o'qish nimani anglatadi?
4. Talaba muvaffaqiyatsizlikni qanday talqin qiladi?
5. Talaba o'zining o'qish jarayonini boshqara oladimi?

Natijada 1970-90-yillar o'zlashtirish psixologiyasida yangi ilmiy paradigma shakllandi: o'quv jarayoni endi shunchaki bilish faoliyati emas, balki motivatsion, affektiv va kognitiv omillar o'zaro ta'sirida shakllanadigan murakkab psixologik tizim sifatida qaraladigan bo'ldi. Bu evolyutsiya keyinchalik metakognitiv yondashuvlar, konstruktivizm va o'z-o'zini boshqariladigan o'qish nazariyasining shakllanishi uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

1990-yillardan boshlab ta'lim psixologiyasida talabani o'zlashtirish jarayonini izohlovchi asosiy paradigmalar tubdan o'zgarib boshladi. Bu davrda o'z-o'zini boshqariladigan o'qish va metakognitsiya konsepsiyalari markaziy mavzuga aylandi. Avvalgi yondashuvlarda o'qish jarayoni ko'proq tashqi rag'batlar, kognitiv jarayonlar yoki motivatsion omillar bilan izohlangan bo'lsa, endilikda talabani o'z o'quv faoliyatining faol boshqaruvchisi sifatida ko'ruvchi nazariyalar ustunlik qila boshladi.

Bu yo'nalishning yirik namoyandalari biri B. Zimmerman bo'lib, uning o'z-o'zini boshqariladigan o'qish modeli talabani o'rganish jarayoni faqat nimani bilishi bilan emas, balki o'z bilimini qanday boshqarishi bilan belgilanadi, degan tamoyilga asoslanadi. B. Zimmerman, P. Pintrich va boshqa olimlarning ta'kidlashicha, yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi psixologik ko'nikmalarga bevosita bog'liq:

- o'quv maqsadlarini qo'yish - talaba nimani o'rganishni xohlayotganini aniq belgilay olishi;
- faoliyatni rejalashtirish - o'quv vazifasini qanday bajarishni oldindan strategik rejalashtirish;
- o'qish strategiyasini tanlash - axborotga mos ravishda eng samarali usullarni qo'llash;



- o'zini monitoring qilish - jarayon davomida xatolarni, tushunilmagan joylarni payqay olish;
- o'z faoliyatini baholash - natija va jarayonni tahlil qilib, yangi strategiyalar ishlab chiqish ^[37].

Bu ko'nikmalar majmuasi o'qish jarayonini tashqi omillardan ichki regulyatsiyaga ko'chiradi - talaba o'zining o'quv faoliyatini o'z zimmasiga oladi, shunda o'zlashtirish sifati sezilarli oshadi ^[22].

Metakognitsiya tushunchasi esa J. Flevel tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u talabaning "o'z fikrlash jarayonini kuzatib borish" qobiliyatini anglatadi ^[14]. Metakognitiv jihatdan faol talaba quyidagi savollarni o'ziga berib ishlaydi:

1. "Men aynan qaysi joyni tushunmadim?"
2. "Xatoni qayerda qildim?"
3. "Qaysi strategiya menga samaraliroq?"
4. "Bu ma'lumotni qanday yaxshiroq eslab qolaman?"

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metakognitiv nazoratni rivojlantira olgan talabalar o'qishda mustaqil, tahliliy, refleksiv va yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi. Bu xususiyatlar esa o'zlashtirishning eng kuchli psixologik prediktorlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu davrda ta'lim jarayoni rivojida muhim rol o'ynagan yondashuvlardan yana biri - konstruktivizm bo'ldi. Konstruktivistik nazariya bo'yicha bilim tayyor ko'rinishda berilmaydi; aksincha, talabaning faoliyat jarayonida o'zi quriladi, tashkil qilinadi va qayta talqin qilinadi. Shuning uchun o'qish mexanik jarayon emas - u talabaning shaxsiy tajribasi, oldingi bilimlari, mantiqiy bog'lanishlari va subyektiv tushunchalariga asoslangan holda yuz beradi. Bu yondashuv o'quv jarayonida faol tajriba, muhokama, muammo yechish, refleksiya kabi faol strategiyalarni targ'ib qildi ^[25].

Shunday qilib, 1990-2000-yillarda talabalarning o'zlashtirishini izohlovchi ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatdiki, o'quv jarayonida yuqori natijaga erishayotgan talabalar odatda kuchli IQga ega bo'lgani uchun emas, balki o'z o'qishini mustaqil boshqara olgani uchun, metakognitiv ko'nikmalari rivojlanganligi uchun, strategik fikrlash qobiliyati shakllangan uchun, ichki motivatsiyaga ega bo'lgani uchun ajralib turadi.

Natijada o'zlashtirishning psixologik modeli kognitiv qobiliyat markazidan shaxsning o'z-o'zini boshqarish salohiyatiga ko'chirildi. Bu yondashuv hozirgi zamonaviy ta'lim paradigmasi uchun ham asosiy metodologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi o'n yillikda talabalarning o'zlashtirish jarayonini izohlovchi psixologik yondashuvlar raqamli texnologiyalar, masofaviy o'qitish, onlayn platformalar va sun'iy intellektning ta'lim tizimiga chuqur kirib kelishi bilan yanada murakkablashdi. Raqamli muhit talabaning bilish jarayonlari, motivatsiyasi, diqqatni boshqarishi, o'qish strategiyalari va o'z-o'zini regulyatsiya qilish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsata boshladi ^[27]. Shu bois, zamonaviy ta'lim psixologiyasida o'zlashtirish masalasi an'anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmay, raqamli xulq, algoritmik ta'sir va sun'iy intellekt bilan o'zaro munosabatlar kontekstida o'rganila boshlandi ^[18].

Raqamli o'qitish (e-learning) va aralash ta'lim (blended learning) sharoitida talaba muvaffaqiyati bir qator yangi psixologik omillar bilan belgilanadi. Avvalo, raqamli savodxonlik - talabaning texnologiyalarni to'g'ri, maqsadli va strategik qo'llay olishi - o'quv jarayonining markaziy kompetensiyalaridan biriga aylandi ^[15]. Shuningdek, masofaviy ta'limda talabaning o'z-o'zini nazorat qilish, vaqtni boshqarish, topshiriqlarni rejalashtirish kabi ko'nikmalari o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda ^[9]. Biroq raqamli o'quv muhiti diqqatning bo'linishiga, raqamli chalg'ituvchilar (smartfon, messenjer, ijtimoiy tarmoq)ning kuchayishiga olib kelishi tufayli talaba o'zlashtirish strategiyalarini qayta qurishga majbur bo'ladi ^[24]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli chalg'ituvchilar e'tibor resurslarini fragmentatsiyaga uchratib, topshiriqni chuqur o'zlashtirish imkoniyatini kamaytiradi ^[17].

Raqamli ta'limning rivojlanishi learning analytics yo'nalishining shakllanishiga sabab bo'ldi. Learning analytics talabaning platformadagi xatti-harakatini - kirish chastotasi, sarflangan vaqt, topshiriqlarni bajarish vaqti, kliklar, sahifa o'zgarishlarini qayd etib, o'zlashtirish darajasini bashorat qilish imkonini beradi ^[13]. Bu yondashuv pedagoglarda "xavf guruhidagi talabalar"ni erta aniqlash, individual ko'mak berish, o'zlashtirish pasayishining sabablarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi ^[1]. Learning analytics, shuningdek, o'qish jarayonida yuzaga kelgan psixologik to'siqlarni (prokrastinatsiya, charchoq, motivatsiya pasayishi) aniqlashda ham qo'llanmoqda.

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga eng katta yangilik kiritgan hodisalardan biri - sun'iy intellekt yordamida o'qitish hisoblanadi. Sun'iy intellektning adaptiv algoritmlari talabaning xatolarini tahlil qilib, shaxsga moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etadi, murakkab tushunchalarni soddalashtiradi, talabaning rivojlanish tezligiga mos o'quv yo'lini yaratadi ^[16]. Bu esa o'zlashtirish darajasining oshishiga, xususan sust o'zlashtiruvchi talabalar uchun sezilarli yordam bo'lishi mumkin. Sun'iy intellekt ayni paytda virtual repetitor, murabbiy yoki maslahat beruvchi agent sifatida ham ishlamoqda. Intelligent tutoring systems bo'yicha tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, bunday tizimlar o'quvchilarga individual yordam berish, xatolarni aniqlash, tushunmagan joylarini izohlash va o'quv jarayonini moslashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishi mumkin^[23].

Biroq ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt ta'lim tizimlarining haddan tashqari samaradorligi kutilmagan salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin^[16]. Eng ko'p muhokama qilinayotgan xavflardan biri - sun'iy intellektga ortiqcha tayanish bo'lib, bu talabning mustaqil fikrlashi, muammoni hal qilish ko'nikmalari, refleksiv tahlili va o'z-o'zini boshqarish salohiyatining pasayishiga olib keladi. Talabalar ko'pincha murakkab fikrlashni SI'dan "so'rash", mustaqil strategiya tanlash o'rniga sun'iy intellekt takliflarini qabul qilish, o'qishga bo'lgan mas'uliyatni texnologiyaga topshirish tendensiyalarini namoyon qilmoqda. Bu jarayon ayrim ilmiy izlanishlarda "sun'iy intellektga kognitiv tayanish" yoki "sun'iy intellektga qaramlik" sifatida izohlanmoqda^[34].

Shu tariqa, raqamli va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim muhiti o'zlashtirish psixologiyasini sezilarli darajada o'zgartirdi. Endilikda talabalarning o'zlashtirish darajasi nafaqat kognitiv va motivatsion omillar bilan, balki raqamli muhitning struktura va sifatiga, talabning raqamli strategiyalarni qo'llay olishiga, texnologiyaning xulq-atvoriga ta'siri, algoritmik modulyatsiya, diqqat resurslarining parchalanishi, sun'iy intellekt vositalariga berilgan ishonch darajasiga ham bevosita bog'liq (1-rasmga qarang).



1-rasm: Talabalarning o'zlashtirishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar evolyutsiyasi modeli

Bu evolyutsiya shuni ko'rsatadiki, XXI asr talabasining o'zlashtirish mexanizmlari klassik psixologik model-lardan farqlanadi va zamonaviy o'quv jarayonini tushuntirish uchun biopsixososial-raqamli modelni qo'llash talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning o'zlashtirishi haqidagi psixologik qarashlar markazda IQ yondashuvidan ko'p omilli biopsi-xososial modelgacha evolyutsiya qildi.

Dastlab o'zlashtirish intellekt va xotira bilan bog'langan bo'lsa, hozir motivatsiya, o'z-o'zini boshqarish, metakognitsiya, ijtimoiy muhit, raqamli kontekst, algoritmik ta'sir kabi ko'plab omillar birgalikda o'rganilmoqda. Raqamli va sun'iy intellekt davrida talaba o'zlashtirishi masalasi nafaqat "Qanday o'zlashtirayapti?", balki "Kimga (nimaga) tayanib o'zlashtirayapti?", "O'z tafakkurining mahsuli bo'lgan fikrni sun'iy intellektnikidan qanchalik ajrata oladi?" kabi savollarni ham kun tartibiga chiqardi.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arnold, K. E., & Pistilli, M. D. (2012). Course signals at Purdue: Using learning analytics to increase student success. *Proceedings of the 2nd International Conference on Learning Analytics and Knowledge*, 267–270. <https://doi.org/10.1145/2330601.2330666>
2. Atkinson, R. C., & Shiffrin, R. M. (1968). Human memory: A proposed system and its control processes. In K. W. Spence & J. T. Spence (Eds.), *The psychology of learning and motivation* (Vol. 2, pp. 89–195). Academic Press.
3. Ausubel, D. P. (1968). *Educational psychology: A cognitive view*. Holt, Rinehart & Winston.
4. Baddeley, A. (1992). Working memory. *Science*, 255(5044), 556–559. <https://doi.org/10.1126/science.1736359>
5. Bandura, A. (1977). Self-efficacy: Toward a unifying theory of behavioral change. *Psychological Review*, 84(2), 191–215. <https://doi.org/10.1037/0033-295X.84.2.191>
6. Bandura, A. (1986). *Social foundations of thought and action: A social cognitive theory*. Prentice-Hall.
7. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. Freeman.
8. Binet, A., & Simon, T. (1905). Méthodes nouvelles pour le diagnostic du niveau intellectuel des anormaux. *L'Année Psychologique*, 11, 191–244.
9. Broadbent, J., & Poon, W. L. (2015). Self-regulated learning strategies and academic achievement in online higher education learning environments: A systematic review. *The Internet and Higher Education*, 27, 1–13. <https://doi.org/10.1016/j.iheduc.2015.04.007>
10. Bruner, J. S. (1960). *The process of education*. Harvard University Press.
11. Eccles, J. S., Adler, T. F., Futterman, R., Goff, S. B., Kaczala, C. M., Meece, J. L., & Midgley, C. (1983). Expectancies, values, and academic behaviors. In J. T. Spence (Ed.), *Achievement and achievement motives: Psychological and sociological approaches* (pp. 75–146). W. H. Freeman.
12. Eccles, J. S., & Wigfield, A. (2002). Motivational beliefs, values, and goals. *Annual Review of Psychology*, 53, 109–132. <https://doi.org/10.1146/annurev.psych.53.100901.135153>
13. Ferguson, R. (2012). Learning analytics: Drivers, developments and challenges. *International Journal of Technology Enhanced Learning*, 4(5/6), 304–317. <https://doi.org/10.1504/IJTEL.2012.051816>
14. Flavell, J. H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 34(10), 906–911. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906>
15. Greene, J. A., Yu, S. B., & Copeland, D. Z. (2014). Measuring critical components of digital literacy and their relationships with learning. *Computers & Education*, 76, 55–69. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2014.03.008>
16. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial intelligence in education: Promises and implications for teaching and learning*. Center for Curriculum Redesign.
17. Kirschner, P. A., & Karpinski, A. C. (2010). Facebook® and academic performance. *Computers in Human Behavior*, 26(6), 1237–1245. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2010.03.024>
18. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). *Intelligence unleashed: An argument for AI in education*. Pearson.
19. Mayer, R. E. (2005). *The Cambridge handbook of multimedia learning*. Cambridge University Press.
20. Mirziyoyev, Sh. M. (2026, June 5). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Peterburg xalqaro iqtisodiy forumidagi nutqi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/9284>
21. Neisser, U. (1967). *Cognitive psychology*. Appleton-Century-Crofts.
22. Pintrich, P. R. (2000). The role of goal orientation in self-regulated learning. In M. Boekaerts, P. R. Pintrich, & M. Zeidner (Eds.), *Handbook of self-regulation* (pp. 451–502). Academic Press.
23. Roll, I., & Wylie, R. (2016). Evolution and revolution in artificial intelligence in education. *International Journal of Artificial Intelligence in Education*, 26, 582–599. <https://doi.org/10.1007/s40593-016-0110-3>
24. Rosen, L. D., Carrier, L. M., & Cheever, N. A. (2013). Facebook and texting made me do it: Media-induced task-switching while studying. *Computers in Human Behavior*, 29(3), 948–958. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2012.12.001>
25. Schunk, D. H. (2012). *Learning theories: An educational perspective* (6th ed.). Pearson.
26. Schunk, D. H., & Pajares, F. (2002). The development of academic self-efficacy. In A. Wigfield & J. S. Eccles (Eds.), *Development of achievement motivation* (pp. 15–31). Academic Press. <https://doi.org/10.1016/B978-012750053-9/50003-6>
27. Siemens, G., & Long, P. (2011). Penetrating the fog: Analytics in learning and education. *EDUCAUSE Review*, 46(5), 30–40.
28. Skinner, B. F. (1938). *The behavior of organisms: An experimental analysis*. Appleton-Century.
29. Skinner, B. F. (1953). *Science and human behavior*. Macmillan.
30. Snow, R. E., Corno, L., & Jackson, D. (1996). Individual differences in affective and conative functions. In D. C. Berliner & R. C. Calfee (Eds.), *Handbook of educational psychology*. Macmillan.
31. Spearman, C. (1904). General intelligence, objectively determined and measured. *The American Journal of Psychology*, 15(2), 201–292.
32. Terman, L. M. (1916). *The measurement of intelligence*. Houghton Mifflin.
33. Thorndike, E. L. (1911). *Animal intelligence: Experimental studies*. Macmillan.
34. Vasconcelos, H., Jörke, M., Grunde-McLaughlin, M., Gerstenberg, T., Bernstein, M., & Krishna, R. (2022). Explanations can reduce overreliance on AI systems during decision-making. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2212.06823>
35. Watson, J. B. (1913). Psychology as the behaviorist views it. *Psychological Review*, 20(2), 158–177.
36. Weiner, B. (1985). An attributional theory of achievement motivation and emotion. *Psychological Review*, 92(4), 548–573. <https://doi.org/10.1037/0033-295X.92.4.548>
37. Zimmerman, B. J. (1989). A social cognitive view of self-regulated academic learning. *Journal of Educational Psychology*, 81(3), 329–339. <https://doi.org/10.1037/0022-0663.81.3.329>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.